# Ogahiyning yangi dastxati: “Guliston” qo’lyozmasi topildi

Yaqinda Xorazm viloyati hududida yana nodir qo’lyozmalar topildi. Xiva shahar Ichki ishlar bo’limi tomonidan 9 ta qo’lyozma topilib, Xorazm Ma’mun akademiyasi tasarrufiga topshirildi. Qo’lyozmalar orasida Sa’diy Sheroziyning “Guliston” asarining turkiy tarjimasi ham mavjud. Ushbu tarjima o’zbek adabiyoti va tarjimonlik maktabiga ulkan hissa qo’shgan Muhammadrizo Ogahiy qalamiga mansub va dastxatligi aniqlandi. Shu paytgacha tarjimonning ushbu asar dastxat nusxasi yo’q edi.

Sa’diy Sheroziyning (1210–1292) dunyoga mashhur asarlaridan biri “Guliston” tarjimasi shahzoda Muhammadrahim II buyurtmasi bilan amalga oshirilgan.

Sa’diy Sheroziyning ushbu asar tarjimasi bir necha marta o’zbek tiliga Sayfi Saroyi, Muhammadrizo Ogahiy, Mulla Murodxo’ja Solihxo’ja, G’afur G’ulom va Shoislom Shomuhammedov, Rustam Komilovlar tomonidan tarjima qilingan. Yaqinda asarning f.f.d. Aftondil Erkinov tomonidan yana bir turkiy tarjimasi aniqlandi. Tarjima o’rta asrlarda qarluq lahjasida Oltin O’rdada amalga oshirilgan degan fikr ilgari surildi.

Ogahiy tarjimasining 2019-yilga qadar 3 ta qo’lyozmasi ma’lum edi, 2019-yilda asarning yana bir qo’lyozmasi aniqlangandi. Yetuk olimlarimiz Vahob Rahmon va Najmiddin Komilovlarning ilmiy ishlarida Ogahiyning aynan shu asar tarjimasi to’g’risida batafsil ma’lumot beriladi va shoirning mahorati yuksak baholanadi.

Qo’lyozma sharq qog’oziga ko’chirilgan, hoshiyalarda tuzatish va qo’shimchalar bor. Asar tarjimasi to’liq, 220 varaqni ishg’ol qilgan. Asosan she’r tarjimalarining qo’shimchalari hoshiyada berilgan, bu ham o’z navbatida shoir dastxati ekanligidan dalolatdir. Qo’lyozmada kolofon yo’q bo’lib, hijriy 1279/1862-1863-yillar sanasi ko’rsatilgan. Ogahiy dastxatlarida deyarli har doim kolofon mavjud bo’lmaydi. Ayni holatni faqat Ogahiy dastxatiga nisbatan emas, balki Xiva xonligida bitilgan boshqa dastxat nusxalar uchun ham xos, deya olamiz. Aftidan, mazkur jihat o’sha davr Xiva xonligi kitobat ishining o’ziga xos xususiyati bo’lishi mumkin. Ushbu nusxa asarning boshqa qo’lyozmalari bilan solishtirishi kerak.

Mazkur qo’lyozmani o’rganishda yaqindan yordam bergan Xorazm Ma’mun akademiyasi rahbariyatiga, katta ilmiy xodim Dilmurod Bobojonovga hamda FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi (PhD) Hilola Nazirovaga o’z minnatdorchiligimizni bildiramiz.